



TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI

Quvvatov Rahmatulla Xikmatillayevich

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi Termiz shahar
3-ixtisoslashtirilgan maktabi o'qituvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- October 2023 yil

Ma'qullandi: 15- October 2023 yil

Nashr qilindi: 20-October 2023 yil

KEY WORDS

metod, usul, vosita, jarayon

ABSTRACT

Ta'lim metodlari muayyan pedagogik jarayondan ko'zda tutilgan maqsadlarga erishish uchun bajarish lozim bo'lgan vazifalari amalga oshirishda qo'llaniladigan turli-tuman ish usullari va shakllarini o'z ichiga oladi.



Metod bu-texnologiya, usullar majmuasi, maqsadga erishish yo'li bo'lib har bir soha o'z metodlariga ega bo'ladi. Ta'lim metodi esa anchagina murakkab bo'lib, aniq faktlarga asoslanga bo'ladi. Ta'lim metodlari ta'lim beruvchi ongida ma'lum bir yunalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida shakllangan bo'ladi. Mazkur loyihada ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatining o'zaro tutashuvi o'qitish va o'qishga yo'naltirilgan aniq harakatlar, amallar va rejalar shaklida joriy etiladi. Bunda o'qituvchiga davlat ta'lim standartlaridan chetga chiqmagan holda turli samarali metodlardan foydalanib o'quvchiga sifatli ta'lim berishdek muhim vazifa yuklatiladi. Bunda o'qituvchi og'zaki, ko'rgazmali va amaliy metodlardan foydalanib ta'lim shaklini yanada samarali shakllantiradi.

•Og'zaki ta'lim metodi o'z ichiga tushuntirish, hikoya suhbat, bahs, munozara kabi ichki kichik uslublarni o'z ichiga oladi va ta'lim oluvchiga eshitish orqali ta'lim egallash qobiliyatini o'stiradi. •Ko'rgazmali ta'lim metodi ma'munaviy misol keltirish, namoyish qilish, foto va video shaklida namoyish qilish kabi uslublardan tashkil topgan bo'lib, bunda o'quvchi mavzuga oid material va malumotni ko'rib tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

•Amaliy metod eng muhim metodlardan bo'lib, mashq bajarish, laboratoriya va amalda qo'llash kabi uslublardan tarkib topgan bo'ladi va o'quvchi nazariyani amaliyotda sinab ko'rib o'z bilim malakasini oshiradi.

Bu ishlarni amalga oshirishning shakllangan va amaliyotda qo'llanilayotgan har turli usullari va shakllari asosida ko'plab ta'lim metodlari hosil bo'lgan va bu jarayon davom etmoqda.

Muayyan ta'lim-tarbiyaviy maqsadga qaratilgan biror harakatni amalga oshirish yo'li, usuli yoki ko'rinishidan iborat bo'lib shakllangan faoliyat shu maqsadga erishishga xizmat qiluvchi o'ziga xos ta'lim metodini hosil qiladi.

Bunda harakatni amalga oshirish yo'li deb bajarilishi talab qilinayotgan faoliyat uchun qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta yo'llardan oldindan ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq ravishda tanlangan yo'lni aytiladi. Masalan, savod o'rgatish yo'llari: oilada o'rgatish, maktabda o'rgatish, maktabgacha ta'lim muassasasida o'rgatish, o'qituvchi yordamida o'rgatish, kitoblar, kompyuter, ko'rgazma qurollar va boshqalar vositasida o'rgatish. Shunga o'xshash sanoqni,

arifmetik amallarni o'rgatishda ham yuqoridagiga o'xshash yo'llardan foydalanish mumkin. Shu yo'llardan foydalangan harakatni amalga oshirishda har turli metodlarni qo'llaniladi.

Masalan, savod o'rgatish maqsadida yuqorida aytilgan yo'llardan istalgani tanlangandan keyin, shu har bir yo'l uchun maqsadga muvofiq deb hisoblangan metodlarni qo'llaniladi. Bular, oilada, maktabgacha ta'lim muassasasida, maktabda savod o'rgatishni amalga oshirishda o'qituvchining, tarbiyachining qo'llaydigan ish usullarini; kompyuter, kitob va boshqa ta'lim- tarbiya vositalarini belgilangan maqsadga muvofiq qo'llash metodlarini o'z ichiga oladi. Shunga o'xshash sanoqni, arifmetik amallarni o'rgatish yuzasidan ham tanlangan har bir yo'l o'ziga xos metodlarni qo'llashni nazarda tutadi. Demak har bir harakat ma'lum yo'lda va shunga muvofiq metodda amalga oshiriladi.

Biror metodni qo'llaniladigan harakatni amalga oshirish ko'rinishi deb shu harakatni batafsil tasvirllovchi ko'rinishga aytiladi. Bunda harakatning kuzatiladigan o'zgarishlari, vaziyatlari, tezligi va uning ortishi yoki sekinlashuvi, to'xtashlari, bir nechta harakatlarning bir vaqtdaligi yoki ularning vaqt oraliqlari, harakatlar natijasi, amaliy ishlar bajarish mashulotlarida esa, ishlov berilayotgan shakllar, fazoviy xolatlar, ranglar, qattiq-yumshoqlik, sirtlarning tekisligi yoki adir-budurli o'zgarishlari va boshqa kuzatish mumkin bo'lgan turli harakat ko'rinishlari nazarda tutiladi.

Inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli metodlardan foydalaniladi. Bu metodlarning eng umumiy belgisini hisobga olgan holda ularni borliqni amaliy yoki nazariy o'zlashtirish operastiyalarining yoki yo'llarining yiindisi deyish mumkin. Ushbu qo'llanmada metod tushunchasini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bolik jihatlaridan ko'rib chiqiladi. Shunga muvofiq ta'lim metodlari bilan bolik eng asosiy tushunchalarning izohlarini ko'rib chiqamiz.

Metod – (grekcha “metodos” so'zidan olingan bo'lib, yo'l, ahloq usuli ma'nolarini anglatadi). Tabiat va ijtimoiy hayot hodisalarini bilish, tadqiq qilish usuli. Faoliyat, harakatning yo'li, usuli yoki qiyofasi, shakli, ko'rinishi.

Ta'lim metodi – o'qituvchining o'quvchilar bilan muntazam qo'llaydigan, o'quvchilarga o'z aqliy qobiliyatlarini va qiziqishlarini rivojlantirish, bilim va ko'nikmalarni egallash hamda ulardan amalda foydalanish imkonini beruvchi ish usuli. Belgilangan ta'lim berish maqsadiga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'zaro faoliyatini tashkil qilishning tartibga solingan usullari majmuasidir.

Metodika – biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, usullari, yo'llari majmuasi. U alohida metodikalardan tashkil topadi. Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish hamda tarbiyaviy ishlar qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, arifmetika metodikasi va shu kabilar.

Usul – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish tartibi.

Uslub – biror narsa, hodisa, jarayonni o'rganish yoki amalga oshirish uchun qo'llash lozim bo'lgan usullar majmuasi.

Yo'l (ruscha – priyom) – biror maqsadni amalga oshirish uchun tanlangan harakat turi.

Yuqorida aytilganlardan ko'rinadiki, har bir ta'lim metodi tarkibiga muayyan ta'lim-tarbiyaviy vazifani bajarishga qaratilgan ish-harakat usullari, yo'llari kiradi.

Maktabdan kerakli bilimni ololmagan bola maktabga nisbatan qiziqishi yo'qoladi va ustozlardan va darsdan uzoqlashib, asosiy e'tiborini repetetordagi o'zi qiziqqan sohaga oid fanlarga qarata boradi. Bu ta'lim metodlarida va standarlari ancha kamchiliklar borligini anglatadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ta'lim standartlariga va metodlariga bir

qancha o'zgartirishlar kiritish kerak deb o'ylayman. Yani beshinchi sinfda to'qqizinchi sinfgacha o'quvchi matematika, fizika, kimyo, biologiya, ona tili va adabiyot, tarix kabi asosiy fanlarni bosqichma bosqich o'rgansin, to'qqizinchi sinfdan o'n birinchi sinfgacha, uch yil mobaynida bolalarga iqtidori va tanlovlarini inobatga olgan holda eng kuchli mutaxassislar tomonidan chuqurlashtirilgan ta'lim berilishi to'g'risida yangi metodni ta'limga kiritishlarini taklif qilaman.

Xulosa: Zamonaviy va mahsuldor ta'lim metodlari ta'lim samaradorligining kafolatidir. Bunda ta'lim uchun o'qituvchining bilim mahorati va salohiyati o'quvchining sifatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Albatta bu metodlar o'quvchilarning boshlang'ich ta'limdan to'liq ta'limgacha o'quvchilarning kelajagi va manfaati uchun ishlashi va kerakli natijani berishi zarur.

References:

1. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil, 416 bet.
2. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -420 b
3. Khayitova S. P. SOIL SCIENCE AND SOIL TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH //Мировая наука. – 2023. – №. 6 (75). – С. 4-7.
4. Khayitova S. P. SOIL SCIENCE AND SOIL TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH //Мировая наука. – 2023. – №. 6 (75). – С. 4-7.
5. Khayitova S. P. LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF THE PROVERBS BY THE NAMES OF BAKERY PRODUCTS IN ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 104-109.
6. Khayitova S. P. LEXICO-SEMANTIC FEATURES OF THE PROVERBS BY THE NAMES OF BAKERY PRODUCTS IN ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES //Academic research in educational sciences. – 2021. – T. 2. – №. 11. – С. 104-109.
7. Khayitova S. P. SOIL SCIENCE AND SOIL TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH //Мировая наука. – 2023. – №. 6 (75). – С. 4-7.
8. Khayitova S. P. SOIL SCIENCE AND SOIL TERMINOLOGY IN UZBEK AND ENGLISH //Мировая наука. – 2023. – №. 6 (75). – С. 4-7.